

**FRANSUZ TILIDAGI TURIZMGA OID LEKSIK BIRLIKLARNING  
LINGVO MADANIY XUSUSIYATLARI****Ilmiy rahbar: Ataulloyeva Dilfuza Azizovna***Samarqand davlat chet tillari instituti katta o‘qituvchi***Ergashova Sevinch***Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi**Tel: +998940520705**[sevinchregasheva@gmail.com](mailto:sevinchregasheva@gmail.com)***Eshonqulov Sevinch***Samarqand davlat chet tillari instituti talabasi**Tel: +998501255363**bobomurodova [muborak@gmail.com](mailto:muborak@gmail.com)*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada fransuz tilidagi turizm sohasiga oid leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlari tahlil qilinadi. Turizm terminlari xalqning milliy madaniyati, urf-odatlarini, mentaliteti va tarixiy qadriyatlarini aks ettiruvchi muhim til birliklari hisoblanadi. Tadqiqot davomida fransuz tilida keng qo‘llaniladigan turizmga oid so‘z va iboralarning ma‘no xususiyatlari, ularning madaniy mazmuni hamda kommunikativ vazifalari o‘rganildi. Shuningdek, fransuz xalqining mehmondo‘stlik, gastronomiya, tarixiy obidalar va sayohat madaniyatiga oid qarashlari leksik birliklar orqali ifodalanishi ko‘rsatib berildi. Maqolada lingvomadaniyatshunoslik yondashuvi asosida turizm terminlarining milliy-madaniy semantikasi ochib berilgan. Tadqiqot natijalari fransuz tilini o‘qitish, tarjimashunoslik hamda turizm sohasida mutaxassislar tayyorlash jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi.*

**Kalit so‘zlar:** *turizm leksikasi, lingvomadaniyat, fransuz tili, leksik birlik, madaniyat, semantika, kommunikatsiya, milliy qadriyatlar.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются лингвокультурные особенности лексических единиц, связанных со сферой туризма во французском языке. Туристическая лексика является важной частью языка, отражающей национальную культуру, традиции, менталитет и исторические ценности народа. В ходе исследования были проанализированы семантические особенности туристических терминов и выражений, широко употребляемых во французском языке, а также их культурное содержание и коммуникативные функции. Особое внимание уделяется отражению французской культуры гостеприимства, гастрономии, исторических памятников и традиций путешествий через языковые единицы. На основе*

лингвокультурологического подхода раскрывается национально-культурная специфика туристической лексики французского языка. Результаты исследования могут быть использованы в преподавании французского языка, переводоведении, а также в подготовке специалистов в сфере туризма

**Ключевые слова:** туристическая лексика, лингвокультурология, французский язык, лексическая единица, культура, семантика, коммуникация, национальные ценности.

**Annotation:** Cet article examine les caractéristiques linguoculturelles des unités lexicales liées au domaine du tourisme en français. Le vocabulaire du tourisme constitue une partie importante de la langue qui reflète la culture nationale, les traditions, la mentalité et les valeurs historiques du peuple français. Au cours de cette recherche, les particularités sémantiques des termes et expressions touristiques fréquemment utilisés en français, ainsi que leur contenu culturel et leurs fonctions communicatives, ont été analysés. Une attention particulière est accordée à la manière dont l’hospitalité, la gastronomie, les monuments historiques et la culture du voyage en France sont exprimés à travers les unités lexicales. Sur la base de l’approche linguoculturelle, l’étude met en évidence les spécificités nationales et culturelles du lexique touristique français. Les résultats de cette recherche peuvent être utilisés dans l’enseignement du français, la traductologie et la formation des spécialistes du tourisme.

**Mots-clés :** lexique du tourisme, linguoculture, langue française, unité lexicale, culture, sémantique, communication, valeurs nationales.

Bugungi kunda turizm sohasi dunyo miqyosida jadal rivojlanayotgan yo‘nalishlardan biri hisoblanadi. Turizm nafaqat iqtisodiy, balki madaniy va tilshunoslik jihatidan ham muhim ahamiyatga ega. Har bir xalqning madaniyati, urf-odatlar va milliy qadriyatlarining uning tilida, ayniqsa leksik birliklarida namoyon bo‘ladi. Fransuz tili dunyoda eng boy madaniy va estetik tillardan biri sifatida turizm sohasida keng qo‘llaniladi. Shu sababli fransuz tilidagi turizmga oid leksik birliklarning lingvomadaniy xususiyatlarini o‘rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganadigan fan hisoblanadi. Turizm leksikasi esa xalqning tarixiy merosi, mehmondo‘stligi, milliy taomlari, sayohat an‘analari va madaniy qarashlarini aks ettiradi. Fransuz tilidagi “voyage”, “tourisme”, “gastronomie”, “patrimoine culturel”, “hôtel”, “guide touristique” kabi birliklar nafaqat lug‘aviy ma’noga, balki chuqur madaniy mazmunga ham ega.

intellektual tafakkur bilan tavsiflanadi. Bu xususiyatlar til tizimida ham o‘z aksini topadi. Rang obrazlari aynan shu mental xususiyatlarning lingvistik ifodasini yaratadi. Masalan,

ayrim ranglar hissiy keskinlikni ifodalasa, boshqalari intellekt, yashirin ta’sir yoki ijtimoiy bahoni bildiradi.

Fransuz xalqining madaniyati dunyo miqyosida o‘zining boyligi va o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Ayniqsa, gastronomiya va tarixiy obidalar bilan bog‘liq turistik leksika milliy mentalitetni ifodalaydi. Masalan, “gastronomie française” tushunchasi oddiy ovqatlanish emas, balki fransuz xalqining hayot tarzi va estetik qarashlarini bildiradi. Bu birlik orqali fransuzlarning milliy taomlarga bo‘lgan alohida e’tibori namoyon bo‘ladi.

Turizmga oid leksik birliklarda mehmondo‘stlik madaniyati ham aks etadi. “Accueil”, “hospitalité”, “service touristique” kabi so‘zlar turistlarga hurmat va xizmat ko‘rsatish madaniyatini ifodalaydi. Fransiyada turizm rivojlanganligi sababli ushbu birliklar kundalik nutqda keng qo‘llaniladi.

Asil ma’nosi	So‘zma-so‘z tarjima	Ko‘chma ma’no
voyage culturel	madaniy sayohat	Boshqa xalq madaniyatini o‘rganishga qaratilgan safar
patrimoine culturel	madaniy meros	Xalqning tarixiy va milliy boyligi
art de vivre	yashash san’ati	Fransuzlarning nafis va estetik hayot tarzi
monument historique	tarixiy yodgorlik	Tarixiy qadriyat va milliy faxr ramzi
guide touristique	turistik yo‘lboshchi	Madaniyat va tarixni tanishtiruvchi shaxs Le guide touristique a expliqué l’histoire du musée.
séjour inoubliable	unutilmas yashash safar	Kuchli taassurot qoldiradigan sayohat Notre séjour à Lyon était inoubliable.

Jadvaldagi birliklardan ko‘rinib turibdiki, fransuz tilidagi turizm leksikasi bevosita milliy madaniyat bilan bog‘liq. Ayniqsa, gastronomiya va tarixiy meros bilan bog‘liq so‘zlar Fransiyaning dunyo madaniyatidagi o‘rnini ko‘rsatadi. Ko‘plab turizm terminlari xalqaro

miqyosda ham qo‘llanilib, boshqa tillarga kirib borgan. Bu esa fransuz tilining xalqaro ahamiyatini oshiradi.

Lingvomadaniyatshunoslik til va madaniyat o‘rtasidagi munosabatni o‘rganadi. Turizm leksikasi esa madaniy qadriyatlarni ifodalovchi muhim vositalardan biri hisoblanadi. Fransuz tilidagi turizm terminlari nafaqat lug‘aviy ma’noga, balki milliy-madaniy mazmunga ham ega.

Fransuz tilidagi turizm leksikasi xalqning madaniyati va hayot tarzini aks ettiradi. Masalan, art de vivre iborasi oddiy “yashash” emas, balki hayotdan zavqlanish va estetik did bilan yashash tushunchasini beradi.

Coin de paradis (“jannat burchagi”) iborasi esa joyning go‘zalligini hissiy jihatdan ifodalab, turistlarda ijobiy taassurot uyg‘otadi.

Ville lumière Parijning tarixiy va madaniy markaz sifatidagi ramziy nomidir. Bu birlik Fransiyaning san’at va madaniyatdagi o‘rnini ko‘rsatadi.

Terroir français esa fransuz xalqining milliy mahsulotlari, qishloq xo‘jaligi va an‘analariga bo‘lgan hurmatini bildiradi.

Yana bir muhim birlik — gastronomie française. Ushbu ibora so‘zma-so‘z “fransuz gastronomiyasi” deb tarjima qilinadi. Ko‘chma ma’noda esa u Fransiyaning milliy taomlari, oshpazlik an‘analari va ovqatlanish madaniyatini anglatadi. Fransuz xalqining gastronomik madaniyati dunyoda mashhur bo‘lgani sababli bu birlik turizm sohasida alohida ahamiyatga ega.

Turizm matnlarida destination de rêve iborasi ham keng qo‘llaniladi. U “orzudagi manzil” degan ma’noni bildiradi. Mazkur ibora oddiy geografik joyni emas, balki turistlar orzu qiladigan, juda go‘zal va mashhur sayohat maskanini ifodalaydi. Misol uchun, Parij yoki Nitsa kabi shaharlar ko‘pincha destination de rêve sifatida tasvirlanadi.

Fransuz tilida mehmondo‘stlikni ifodalovchi birliklar ham mavjud. Accueil chaleureux iborasi so‘zma-so‘z “iliq kutib olish” degani. Uning lingvomadaniy ma’nosi esa samimiy munosabat, mehmondo‘stlik va turistlarga hurmatni bildiradi. Bu birlik fransuz xizmat ko‘rsatish madaniyatining muhim qismi hisoblanadi.

Bundan tashqari, coin de paradis iborasi “jannat burchagi” deb tarjima qilinadi. Ushbu birlik ko‘chma ma’noda juda chiroyli, tinch va osoyishta joyni ifodalaydi. Turizm reklamalarida dengiz bo‘yi yoki tog‘li hududlarni tasvirlashda ushbu ibora tez-tez ishlatiladi.

Fransuz tilidagi ville lumière iborasi esa Parij shahrining ramziy nomidir. So‘zma-so‘z “nur shahri” degan ma’noni beradi. Bu ibora Parijning san’at, moda, madaniyat va ma’rifat markazi ekanligini anglatadi.

Shuningdek, patrimoine culturel birikmasi “madaniy meros” ma’nosini bildirib, tarixiy obidalar, muzeylar va milliy qadriyatlarni ifodalaydi. Ushbu birlik orqali fransuz xalqining o‘z tarixiga va madaniyatiga bo‘lgan hurmati namoyon bo‘ladi.

Shuningdek, patrimoine culturel birikmasi “madaniy meros” ma’nosini bildirib, tarixiy obidalar, muzeylar va milliy qadriyatlarni ifodalaydi. Ushbu birlik orqali fransuz xalqining o‘z tarixiga va madaniyatiga bo‘lgan hurmati namoyon bo‘ladi.

### **Xulosa**

Xulosa qilib aytganda, fransuz tilidagi turizmga oid leksik birliklar xalqning madaniyati va milliy o‘ziga xosligini yoritib beradi. Ushbu birliklarning so‘zma-so‘z va ko‘chma ma’nolarini o‘rganish til va madaniyat o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlikni chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Ushbu birliklar orqali fransuz xalqining hayot tarzi, estetik qarashlari, mehmondo‘stligi hamda madaniy qadriyatlarga bo‘lgan munosabati namoyon bo‘ladi. Turizm sohasida qo‘llaniladigan so‘z va iboralar oddiy kommunikativ vosita bo‘lish bilan birga, ma’lum madaniy va emotsional mazmuni ham o‘zida mujassamlashtiradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, fransuz tilidagi turizm leksikasi ko‘pincha tarixiy obidalar, gastronomiya, san’at, moda va sayohat madaniyati bilan chambarchas bog‘liq. Ayniqsa, art de vivre, gastronomie française, destination de rêve, coin de paradis kabi iboralar fransuz xalqining estetik dunyoqarashi va hayotdan zavqlanish madaniyatini ifodalaydi. Bu birliklarning ko‘chma ma’nosi turistlarda ijobiy taassurot uyg‘otishga xizmat qiladi va reklama hamda kommunikatsiyada katta ta’sir kuchiga ega.

Shuningdek, turizmga oid leksik birliklar xalqning tarixiy va madaniy boyliklarini saqlash hamda targ‘ib qilishda muhim rol o‘ynaydi. Patrimoine culturel, monument historique kabi birliklar orqali Fransiyaning tarixiy merosi va milliy qadriyatlari ifodalanadi. Bu esa tilning madaniyatni saqlovchi va avloddan avlodga yetkazuvchi vosita ekanligini ko‘rsatadi.

Lingvomadaniy tahlil shuni ko‘rsatadiki, turizmga oid leksik birliklarni o‘rganish nafaqat tilshunoslik, balki madaniyatshunoslik, tarjimashunoslik va kommunikatsiya sohalari uchun ham muhimdir. Chunki har bir til birligi ma’lum xalqning madaniy tajribasi va qadriyatlarini o‘zida mujassamlashtiradi. Shu sababli turizm terminlarini o‘rganishda ularning faqat lug‘aviy ma’nosiga emas, balki madaniy va pragmatik jihatlariga ham e’tibor qaratish lozim.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Doliyeva L. Fransuz frazeologiyasida rang va ruhiyat oppozitsiyasi // Xorijiy filologiya. – Samarqand, 2020. – №4 (77). – B. 129-135.

2. Xakimova S. Rang komponentli frazeologik birliklarning lingvamadaniy xususiyatlari // Innovatsion tadqiqotlar. – 2024. – №3(12). – B. 21–25.
3. Mamatov A. O‘zbek tili frazeologiyasi. – Toshkent: Fan, 2019.
4. Bourdieu P. La Distinction : Critique sociale du jugement. – Paris: Éditions de Minuit, 1979.
5. Dubois J. Dictionnaire de linguistique. – Paris: Larousse, 2002.
6. Rey A. Dictionnaire des expressions et locutions. – Paris: Le Robert, 2016.
7. Robert P. Le Petit Robert: Dictionnaire de la langue française. – Paris: Le Robert, 2018